Texnikum o‘quvchilarini o‘qitishda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari va omillari

Xamidova Dilorom Muxitdinovna
Koson Agrotexnologiyalar texnikumi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnikum o‘quvchilarini o‘qitishda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjudligi, ular o‘quvchi iqtisodiy tafakkuri rivojiga ijobiy yoki aks ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlanadi. O‘quvchi bilim olish jarayonida pedagogik xususiyatlari kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ahamiyati bayon etildi.

Kalit so‘zlar: iqtisod, kompetensiya, pedagogika, tamoyil, xususiyat, tomil, bilim, ko’nikma, malaka.

Аннотация:В данной статье определено, что существуют педагогические и внешние социально-экономические факторы развития экономической компетентности в обучении студентов техникума, которые могут оказывать положительное или отрицательное влияние на развитие экономического мышления студента. Объяснено значение социально-экономических факторов, таких как педагогические характеристики, в процессе обучения студентов.

Ключевое слово: экономика, компетенция, педагогика, принцип, особенность, тамильский, знание, умение, квалификация.

Annotation: In this article, it is determined that there are pedagogical and external socio-economic factors for the development of economic competence in the education of technical school students, which can have a positive or negative effect on the development of the student's economic thinking. The importance of socio-economic factors such as pedagogical characteristics in the process of student learning was explained.

Key word: economy, competence, pedagogy, principle, feature, Tamil, knowledge, skill, qualification.

Davlatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Vazirlar Mahkamasining 2016 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari hamda 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan 2017 yil 14 yanvar kungi kengaytirilgan yig‘ilishida “… ta’lim, texnologiya, ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini ruyobga chiqarish, ta’limning innovatsion usullarini, shu jumladan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga joriy qilish” masalalariga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlab ko‘rsatganlar.

Iqtisodiyot so‘zi yunoncha oikonomos so`zidan kelib chiqqan bo‘lib, uy xo‘jalikni boshqaradigan kishi degan ma’noni anglatadi. Dastlab, bu manzara o‘ziga xos tuyulishi mumkin. Ammo, aslida, uy xo‘jaliklar va iqtisodiyotda juda ko‘p umumiylik mavjuddir.


Kompetentlik − olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o’xshash harakatlarni ko’zda tutadigan “bilim, ko’nikma va malakalardan” farqli o’laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko’rinishidagi bilim va ko’nikmalarning mavjudligi bo’lib, u ta’lim jarayoni natijalariga ijtimoiymadaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo’yiladigan hollarda namoyon bo’ladi.

Texnikum o‘quvchilarida iqtisodiy kompetensiyasining to‘g‘ri shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi pedagogik va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjudligi, ular o‘quvchi iqtisodiy tafakkuri rivojiga ijobiy yoki aks ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. O‘quvchilarda ilk iqtisodiy bilim olish samarali shakllantirishda nafaqat ta’lim-tarbiyaviy tadbirlar ahamiyatli ekani, uning to‘g‘ri shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi pedagogik va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham mavjudligini ko‘rsatdi.

Ushbu omillar texnikum o‘quvchi iqtisodiy tafakkuri rivojiga ijobiy yoki aks ta’sir ko‘rsatgani bois ularni alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bir so`z bilan aytganda kattalar va o‘quvchilarda birdek tushuncha hosil qilmaganidek, bilim ham turlicha shakllanadi. Tushuncha ham, bilim ham bilish psixik jarayonlarining taraqqiyotini belgilaydi, shu bois inson tashqi olamni tanishida ularning ahamiyati beqiyosdir.

Texnikum o‘quvchilarida ilk iqtisodiy bilimining to‘g‘ri shakllanishiga turtki bo‘luvchi tushunchalar, tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik omillarning ta’siri katta. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchida iqtisodiyotga oid tafakkurning rivojlanishi, unda ijobiy yoki aksincha salbiy tasavvurning shakllanishida atrofida kechayotgan narsa -hodisalar, xususan chetdan qabul qilinayotgan ma’lumotlarga to‘g‘ri munosabat bildirish, umuman voqelikni to‘g‘ri baholash ahamiyatga molikdir. O‘quvchida bilimning to‘g‘ri shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi pedagogik va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjud bo‘lib, quyida ular tahlil qilinadi.

Yuqorida bayon etilgan obyektiv va subyektiv omillar o‘quvchilarda ilk iqtisodiy tasavvurlarni to‘g‘ri shakllantirishda bajarilishi zarur bo‘lgan quyidagi omillarning aniqlanishiga yordam berdi:



Texnikum o‘quvchilarida ilk iqtisodiy bilimlarning to‘g‘ri shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi, o’quvchi psixikasini ham jismonan, ham ma’nan zo‘riqishiga sabab bo‘luvchi, boshqa pedagogik omillarni ham kiritish o‘rinlidir. Tadqiqotda texnikum o‘quvchilarida iqtisodiy kompetensiyani shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilib, unda ushbu yoshdagi o‘quvchilarda ilk iqtisodiy bilimlar asosida iqtisodiy kompetensiyani ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida ikki yo‘nalishda shakllantirilish yo‘llari bayon etildi.

Shunday qilib, texnikum o‘quvchilarini o‘qitishda iqtisodiy bilimining to‘g‘ri shakllanishiga ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik omillarning ta’siri katta. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchida iqtisodiyotga oid tafakkurning rivojlanishi, unda ijobiy yoki aksincha salbiy tasavvurning shakllanishida pedagogik va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillar mavjud bo’lgan asosiy tushunchalaridan unumli foydalanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son farmoni

2. O‘lmasov, A D.Axmedov, B.Xonturayev. «Iqtisodiy bilim asos lari»: O‘quv qo‘llanma - T.: “Iqtisodiyot”, 2020. - 216 b.

3. Valiyev B.N. Iqtisodiy madaniyat va uni shakllantirish omillari. Falsafa.fan.nom. ... dicc. – T.: 2004. –B.134.

4. Tillayeva P. O‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetenciyalarini shakllantirish – pedagogik muammo sifatida. Jamiyat va innovatsiyalar – Obshectvo i innovatsii – Sociyety and innovations. Special Issue – 08 (2022) / ISSN 2181-1415. 171-178-b.

5. Olimovich T. E., Uralovich B. D., Matlubovich M. J. Effective Methods in Teaching Mathematics //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – T. 3. – №. 3. – C. 88-90.

6. Bozarov D. CHIZIQLI VA KVADRATIK MODELLASHTIRISH MAVZUSINI MUSTAQIL O ‘RGANISHGA DOIR MISOLLAR //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 24-28.

7. Dilmurod B., Islom A. PARALLEL IKKITA TO’G’RI CHIZIQ ORASIDAGI MASOFA //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 465-478.

8. Uralovich B. D. CHIZIQLI ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMALARIGA OID MASALALAR //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. A2. – C. 163-171.

9. Maxmudovna G. M., Olimovich T. E., Uralovich B. D. Types and uses of mathematical expressions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 746-749.

10. Bozarov D. U. IKKI O ‘ZGARUVCHILI FUNKSIYANING EKSTREMUMIDAN FOYDALANIB, TEKISLIKDAGI IKKITA FIGURA ORASIDAGI MASOFANI TOPISH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 292-301.

11. Allamova M., Bozarov D. TRIGONOMETRIK TENGSIZLIKLAR YECHIMLARINING INNOVATSION QO ‘LLANILISHI //Eurasian Journal of Mathematical Theory and Computer Sciences. – 2023. – T. 3. – №. 1. – C. 75-78.

12. Bobokhonov S. S., Hamrayev S. Cauchy's integral formula //Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 87-89.

13. Bobokhonov S. S., Namozov D. A generalization of Cauchy's theorem //International Conference on Science, Engineering & Technology. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 88-89.